

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH | 10 |
| Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich | |
| O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI..... | 16 |
| Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon | |
| FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI..... | 20 |
| Ma'rupova Gulnoz | |
| МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН..... | 24 |
| Muratov Abdulaziz Uktamovich | |
| DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY..... | 29 |
| Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar | |
| FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI..... | 34 |
| Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna | |
| MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA | 38 |
| Raximov Alisher Ibragimovich | |
| KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI | 45 |
| BekmurodovAbbos Amiriddinovich | |
| ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC..... | 49 |
| Makhambetova Uringul Reimbaevna | |
| GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH | 55 |
| Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich | |
| GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI | 62 |
| Ergasheva Ma'mura Gayratovna | |
| QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH..... | 69 |
| Axmedova Nilufar Shuxratovna | |
| LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH | 74 |
| Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir | |
| BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES | 82 |
| Farida Nishanova | |
| QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR | 87 |
| Abdullayev Axror Jaxbarovich | |
| BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI | 92 |
| Iskandar Yunusov | |



| | |
|---|-----|
| TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI..... | 98 |
| Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich | |
| KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI | 108 |
| Rahimov Qodir Ergashevich | |
| НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА | 115 |
| Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович | |
| ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI | 124 |
| Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek | |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI..... | 128 |
| Raxmonova Nigina Anvarovna | |
| EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA | 132 |
| Farida Nishanova | |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI | 137 |
| Inobatov Abror Boshlarovich | |
| REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI..... | 144 |
| Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi | |

REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI



Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida tayanch doktoranti
ORCID ID: 0009-0002-3713-5286

Annotatsiya. O'zbekiston real sektorida iqtisodiy subyektlarning institutsional tarkibi hamda davlat, xususi sektor va xorijiy investorlar o'rtasidagi nisbatlarning iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta'siri tahlil qilingan. Real sektor tarmoqlarida mulkchilik shakllarining transformatsiyasi, davlat ishtirokining bosqichma-bosqich qisqarishi va xususi sektor ulushining ortib borishi iqtisodiyotning bozor tamoyillariga moslashuv darajasini ifodalovchi muhim omil sifatida baholangan. Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmat ko'rsatish sohaslarida institutsional subyektlarning taqsimlanishi hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni sharoitida real sektorda davlat rolini transformatsiyalash zarurati, subsidiyalar, davlat korxonalarini faoliyati, tarif siyosati va texnik tartibga solish tizimiga qo'yilayotgan talablar tahlil qilingan. JST talablari asosida davlatning bevosita iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki qisqarib, uning regulyatorlik funksiyasi kuchayishi natijasida raqobat muhiti yaxshilanishi, xorijiy investitsiyalar oqimi ortishi hamda real sektor korxonalarining raqobatbardoshligi va samaradorligi oshishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Olingan natijalar real sektorni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish va iqtisodiyotning barqaror hamda inklyuziv rivojlanishini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: real sektor, davlat tomonidan tartibga solish, institutsional transformatsiya, iqtisodiy subyektlar, davlat sektori, xususi sektor, xorijiy investorlar, Jahon savdo tashkiloti (JST), iqtisodiy liberallashtirish, xususiylashtirish, raqobatbardoshlik, global qiymat zanjirlari, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy modernizatsiya, barqaror iqtisodiy o'sish.

Аннотация. Проанализированы институциональная структура субъектов экономики реального сектора Узбекистана, а также влияние соотношения государственного, частного и иностранного капитала на процессы экономического развития. Трансформация форм собственности в отраслях реального сектора, поэтапное сокращение участия государства и увеличение доли частного сектора рассматриваются как важные факторы адаптации экономики к рыночным принципам. Научно обосновано распределение институциональных субъектов в промышленности, сельском хозяйстве, строительстве и сфере услуг, а также их влияние на экономическую эффективность. Исследованы вопросы трансформации роли государства в реальном секторе в условиях присоединения Узбекистана к Всемирной торговой организации, включая требования к субсидиям, деятельности государственных предприятий, тарифной политике и системе технического регулирования. Доказано, что сокращение прямого участия государства в хозяйственной деятельности и усиление его регуляторных функций способствуют улучшению конкурентной среды, увеличению притока иностранных инвестиций и повышению конкурентоспособности предприятий реального сектора. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании механизмов государственного регулирования и обеспечении устойчивого и инклюзивного экономического развития.

Ключевые слова: реальный сектор, государственное регулирование, институциональная трансформация, экономические субъекты, государственный сектор, частный сектор, иностранные инвесторы, Всемирная торговая организация (ВТО), экономическая либерализация, приватизация, конкурентоспособность, глобальные цепочки создания стоимости, иностранные инвестиции, экономическая модернизация, устойчивый экономический рост.

Abstract. The institutional structure of economic entities in Uzbekistan's real sector and the impact of the balance between the public sector, private sector, and foreign investors on economic development processes are analyzed. The transformation of ownership structures, the gradual reduction of state participation, and the increasing share of the private sector are assessed as key indicators of the economy's adaptation to market principles. The distribution of institutional entities across industry, agriculture, construction, and services, as well as their impact on economic efficiency, is scientifically substantiated. Particular attention is paid to the transformation of the state's role in the real sector within the context of Uzbekistan's accession to the World Trade Organization (WTO), including issues related to subsidies, state-owned enterprises, tariff policy, and technical regulation. The study demonstrates that reducing direct state involvement in economic activities while strengthening regulatory functions contributes to a more competitive business environment, increased foreign investment inflows, and higher competitiveness and efficiency of real-sector enterprises. The findings provide a basis



for improving state regulation mechanisms and ensuring sustainable and inclusive economic development.

Keywords: real sector, state regulation, institutional transformation, economic entities, public sector, private sector, foreign investors, World Trade Organization (WTO), economic liberalization, privatization, competitiveness, global value chains, foreign investment, economic modernization, sustainable economic growth.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi, xalqaro savdo munosabatlarining liberallashtirishi hamda iqtisodiy tizimlarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish zarurati real sektorni samarali rivojlantirish masalasini davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, 2008–yildagi global moliyaviy inqiroz va 2020–yildagi pandemiya sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlatning real sektordagi roli hamda iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi masalalari yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, yalpi ichki mahsulotning o'sishi, aholi bandligi va farovonligining oshishi bevosita real sektor tarmoqlarining rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Shu bois ko'plab davlatlarda real sektorni qo'llab-quvvatlash va tartibga solishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini maqbullashtirish, xususi sektor faoliyati uchun qulay muhit yaratish, investitsion faollikni rag'batlantirish hamda innovatsion rivojlanishni ta'minlash muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ham iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat ulushini qisqartirish, xususi mulk daxlsizligini ta'minlash, raqobat muhitini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishga qaratilgan keng ko'lamlil institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Strategik rivojlanish dasturlarida iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini oshirish, davlat ishtirokidagi korxonalar sonini qisqartirish hamda iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonining faollashuvi real sektorni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Xususan, subsidiyalari siyosatini optimallashtirish, davlat korxonalarining bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritishini ta'minlash, narxlar va tariflarni liberallashtirish, texnik tartibga solish tizimini xalqaro talablarga moslashtirish zarurati mavjud. Ushbu holatlar real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish va amaliy mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi. Mazkur jihatlar mavzuning ilmiy va amaliy dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, uning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash hamda O'zbekiston sharoitida real sektorni rivojlantirishga qaratilgan samarali davlat tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- real sektorning iqtisodiy tizimdagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash;
- davlat, xususi sektor va xorijiy investorlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning real sektor rivojlanishiga ta'sirini aniqlash;
- real sektorni qo'llab-quvvatlashda fiskal, monetar va institutsional mexanizmlar samaradorligini tahlil qilish;
- Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonining real sektorni davlat tomonidan tartibga solish tizimiga ta'sirini baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi real sektori tarmoqlari hamda ularning faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish jarayonlari tanlangan.

Tadqiqot predmeti real sektorni davlat tomonidan tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar, institutsional mexanizmlar, fiskal va monetar vositalar, investitsion rag'batlantirish usullari hamda ularning real sektor rivojlanishiga ta'sirini ifodalovchi iqtisodiy munosabatlar majmuasidan iborat.

Tadqiqot natijalari real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-uslubiy asoslarini rivojlantirishga, iqtisodiyotni liberallashtirish va davlat ishtirokini maqbullashtirish bo'yicha ilmiy qarashlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar real sektorni rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish, davlat ishtirokini optimallashtirish hamda O'zbekistonning JSTga integratsiyalashuvi sharoitida iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish masalalari iqtisodiy nazariya va amaliyotda uzoq yillardan buyon ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, iqtisodiy inqirozlarning davriy takrorlanishi hamda milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligini oshirish zarurati davlatning iqtisodiyotdagi rolini qayta ko'rib chiqish masalasini yanada dolzarb etib qo'yimoqda.

Klassik iqtisodiy maktab vakillari A. Smit va D. Rikardo iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida erkin bozor mexanizmlarini e'tirof etgan holda, davlatning iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki minimal darajada bo'lishi zarurligini ta'kidlaganlar. Ularning fikricha, resurslarning samarali taqsimlanishi va iqtisodiy muvozanat bozorning "ko'rinmas qo'li" orqali ta'minlanadi. Biroq XX asrning birinchi yarmida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozlar mazkur yondashuvning ayrim cheklangan jihatlarini namoyon etdi.

J.M. Keyns iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlatning faol ishtiroki zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Uning nazariyasiga ko'ra, fiskal va monetar siyosat vositalari orqali yalpi talabni boshqarish iqtisodiy pasayishlarning oldini olish hamda bandlikni ta'minlash imkonini beradi. Keynsiy yondashuv keyinchalik real sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslaridan biriga aylandi [1].

Institutsional iqtisodiyot vakillari D. Nort, O. Uilyamson va R. Kouz iqtisodiy rivojlanishda institutlar, mulk huquqi hamda boshqaruv mexanizmlarining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida davlatning asosiy vazifasi bozor institutlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur institutsional muhitni shakllantirishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv zamonaviy iqtisodiyotlarda davlatning "boshqaruvchi" emas, balki "regulyator" sifatidagi rolini kuchaytirish zaruratini asoslaydi.

Real sektorni rivojlantirish va sanoat siyosatini amalga oshirish masalalari bo'yicha J. Stiglits, D. Rodrik hamda H. Changning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda tarkibiy transformatsiyalarni amalga oshirishda davlatning faol ishtiroki muhim ekanligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, mazkur mualliflar davlatning iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki bozor mexanizmlarining samarali faoliyat yuritishiga va sog'lom raqobat muhitining rivojlanishiga xizmat qilishi lozimligini qayd etadilar.

So'nggi yillarda Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda real sektorni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida institutsional sifat, biznes muhiti, investitsion jozibadorlik va davlat boshqaruvi samaradorligi e'tirof etilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini maqbullashtirish, shu bilan birga, tartibga solish va nazorat funksiyalarini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida baholanadi [2].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham real sektorni rivojlantirish, davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy islohotlar samaradorligi masalalari keng tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida real sektorning iqtisodiy o'sishdagi o'rni, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari hamda iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasi masalalari yoritilgan. Biroq mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni sharoitida real sektorni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining transformatsiyasi, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi yangi institutsional nisbatlarning shakllanishi hamda ushbu jarayonlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri masalalari qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Shu sababli, real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi rolini maqbullashtirish hamda JST talablariga mos institutsional yondashuvlarni ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy yo'nalishini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslarini o'rganishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil hamda ilmiy abstraksiyalash usullari qo'llanildi. O'zbekiston real sektorining institutsional tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini baholashda statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili hamda iqtisodiy taqqoslash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, davlat, xususiy sektor va xorijiy investorlar ishtirokinining real sektor rivojlanishiga ta'sirini aniqlashda tizimli yondashuv va mantiqiy tahlil metodlari qo'llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, xalqaro tashkilotlar hamda Jahon savdo tashkilotining rasmiy ma'lumotlari tashkil etdi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Real sektor tarmoqlarida iqtisodiy subyektlarning taqsimlanishi mamlakat iqtisodiyotining bozor



tamoyillariga moslashuv darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Zamonaviy iqtisodiy nazariyaga ko'ra, davlat, xususiy sektor va tashqi dunyo (xorijiy investorlar) o'rtasidagi muvozanat resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlaydi. Real sektor tarmoqlarida institutsional subyektlarning roli iqtisodiyotning tarkibiy muvozanatini va barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish jarayonida har bir subyektning ulushi va funksiyasi muayyan ilmiy asoslarga tayangan holda belgilanadi.

Real sektor tarmoqlarida iqtisodiy subyektlarning institutsional tarkibini tahlil qilish mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasini va davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki ko'lamini baholash imkonini beradi. Zamonaviy iqtisodiy islohotlar natijasida mulkchilik shakllarining transformatsiyasi har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha dinamikani namoyon etmoqda. Xususan, kapital sig'imi yuqori bo'lgan sanoat tarmoqlarida davlatning strategik nazorati saqlanib qolayotgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida xususiy sektorning mutlaq ustuvorligi iqtisodiy faollikning asosiy drayveriga aylangan. Shu bilan birga, "tashqi dunyo" subyektlari, ya'ni xorijiy investorlarning ulushi texnologik modernizatsiya va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv jarayonlarida muhim rol o'ynamoqda. Ushbu subyektlar o'rtasidagi proporsiyalar iqtisodiy resurslarning taqsimlanishi va tarmoqlararo muvozanatni ta'minlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. 2025-yil holatiga ko'ra real sektor tarmoqlari kesimida iqtisodiyot subyektlarining ulushi (foizda) [5]¹

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston iqtisodiyotining institutsional tuzilmasidagi sifat o'zgarishlarini aks ettirib, real sektor tarmoqlarida mulkchilik shakllarining diversifikatsiyalashuvini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Davlat statistika organlarining rasmiy ko'rsatkichlari va iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat tarmog'ida davlat ulushining nisbatan yuqoriligi (30–35%) tabiiy monopoliyalari, energetika va tog'-kon sanoatidagi strategik aktivlarni boshqarish zarurati bilan izohlanadi. Shu bilan birga, qayta ishlash sanoatida xususiy sektorning 50% ga yaqin ulushga ega bo'lishi tarmoqda raqobat muhitining shakllanishi va kichik industrial zonalar faoliyatining kengayishi bilan uzviy bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida xususiy sektor ulushining yuqoriligi (90% dan yuqori) ushbu tarmoqlarning bozor iqtisodiyoti tamoyillariga yuqori darajada moslashganligini ko'rsatadi. Ilmiy nuqtayi nazardan, qishloq xo'jaligida klaster tizimining joriy etilishi davlatning rolini bevosita boshqaruvchidan asosan me'yoriy-huquqiy tartibga soluvchi institutsional subyektga aylantirdi. Xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlar esa iqtisodiyotning eng dinamik segmentlaridan biri sifatida kichik va o'rta biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulot shakllanishidagi muhim rolini namoyon etadi.

"Tashqi dunyo" subyektlarining ulushi, ayniqsa, sanoat va yuqori texnologik xizmatlar sohasida ortib borayotgani mamlakatning global kapital bozoriga integratsiyalashuv darajasini ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish (deetatizatsiya qilish) va xususiy mulkchilik ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan strategik islohotlarning amaliy ifodasi bo'lib, real sektor korxonalarining moliyaviy barqarorligi hamda texnologik modernizatsiyasi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikada amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining strategik yo'nalishlari tahliliga ko'ra, umumiy xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, milliy makroiqtisodiy prognozlariga asosan, 2030–yilga kelib milliy iqtisodiyot tarkibida nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish va davlat ishtirokidagi korxonalar sonini kamida

1 Muallif ishlanmasi

6 barobarga qisqartirish maqsad qilib belgilangan. Mazkur strategik dasturdagi ilmiy-iqtisodiy asoslangan prognozlarga ko'ra, davlatning bevosita ishlab chiqarish hamda iqtisodiy faoliyatdagi ulushi yana 10–15 foizga qisqarishi kutilmoqda [4].

Ushbu institutsional o'zgarishlar va tarkibiy demonopolizatsiyalashuv jarayonlari, o'z navbatida, milliy xo'jalik yurituvchi subyektlarning transchegaraviy integratsiyalashuvini jadallashtiradi. Buning pirovard natijasi sifatida xorijiy transformatsion sarmoyadorlar, xalqaro venchur fondlari hamda transmilliy korporatsiyalarning mahalliy xususiy sektor subyektlari bilan bevosita texnologik hamkorligi, innovatsiyalar transferi, qo'shma startap ekotizimlari hamda global qiymat zanjirlariga (global value chains) integratsiyalashuv ko'lamining sezilarli darajada kengayishiga zamin yaratiladi.

Bundan tashqari, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayoni bugungi kunda o'zining muhim bosqichiga kirgan. Bu jarayon nafaqat tashqi savdoning liberallasuvi, balki mamlakat iqtisodiyotining real sektorida davlatning rolini qayta ko'rib chiqishni talab etuvchi institutsional islohot ham hisoblanadi. 2024–2025–yillarda O'zbekiston JST bilan muzokaralarni sezilarli darajada jadallashtirdi. Hozirgi kunga kelib, JST doirasidagi ishchi guruhning 8- va 9-yig'ilishlari muvaffaqiyatli yakunlandi. O'zbekiston 20 dan ortiq davlatlar, jumladan, AQSH, Yevropa Ittifoqi va Koreya Respublikasi bilan bozorga kirish bo'yicha muzokaralarning faol bosqichini yakunladi. Milliy qonunchilikni JST bitimlari talablariga moslashtirish bo'yicha 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritildi.

JSTning real sektorga davlat aralashuvi bo'yicha O'zbekistonga qo'yayotgan asosiy talablari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, JST bitimlari (ayniqsa, GATT va ASCM – Subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha bitim) davlatning real sektordagi ishtirokini tartibga solish bo'yicha muayyan talablarni belgilaydi. Xususan, ASCM talablariga ko'ra, eksportni rag'batlantiruvchi yoki mahalliy mahsulotlardan foydalanish bilan bog'liq subsidiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish nazarda tutiladi. Statistik tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda real sektor korxonalariga beriladigan soliq va bojxona imtiyozlari bosqichma-bosqich umumiy rejimga o'tkazilmoqda. Masalan, 2023–2024–yillarda bir qator tarmoqlar uchun individual soliq imtiyozlari bekor qilindi [5].

Ikkinchidan, davlat korxonalari (SOE) tijorat faoliyatida xususiy sektor bilan teng sharoitlarda faoliyat yuritishi lozim. JST talablariga ko'ra, davlat korxonalari tijorat mulohazalari asosida qaror qabul qilishi va narx belgilashda tenglik tamoyillariga amal qilishi kerak.

Bundan tashqari, JST real sektorda narxlarning bozor mexanizmlari asosida shakllanishini nazarda tutadi. Energetika va transport kabi strategik sohalarda davlat tomonidan belgilangan tariflarning bosqichma-bosqich liberallashtirilishi ushbu talablarning amaliy ifodasidir. Ta'kidlash joizki, 2024–yil may oyidan boshlab energiya resurslari (elektr energiyasi va tabiiy gaz) tariflarining bozor narxlariga yaqinlashtirilishi JSTga a'zolik yo'lidagi muhim tizimli islohotlardan biri bo'ldi. Shuningdek, TBT bitimiga muvofiq, real sektorda ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun davlat standartlari (GOST) o'rniga xalqaro standartlar va muvofqlikni baholash tizimlarini joriy etish ko'zda tutilgan. Bu esa mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi real sektorda davlatning “boshqaruvchi” rolidani “tartibga soluvchi” (regulyator) rolga o'tish jarayonini jadallashtiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish (xususiylashtirish) va proteksionistik to'siqlarni kamaytirish natijasida real sektor korxonalarining raqobatbardoshligi 10–15 foizga oshishi kutilmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayon iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni doirasida sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmat ko'rsatish sohaslarida davlat ishtirokining transformatsiyasi muayyan ilmiy va statistik asoslarga ega. Sanoat sohasida JSTning asosiy talabi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga beriladigan selektiv subsidiyalar va eksportni rag'batlantiruvchi imtiyozlarni qayta ko'rib chiqishdan iborat. Ilgari davlat ayrim tarmoqlarni (masalan, avtomobilsozlik va elektrotexnika sanoatini) yuqori bojxona to'siqlari orqali qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, endilikda ushbu to'siqlarni bosqichma-bosqich pasaytirish ko'zda tutilmoqda. Statistik ko'rsatkichlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston sanoat mahsulotlari bo'yicha o'rtacha import bojlarini JST talablariga muvofiq 5–10 foizgacha tushirish majburiyatini olmoqda. Bu sohada davlatning roli endilikda himoya qilishdan ko'ra, raqobat muhitini shakllantirishga qaratiladi. Ekspertlar fikricha, import bojlarining pasayishi natijasida sanoatda ishlab chiqarish vositalari (uskunalar) narxi arzonlashib, ishlab chiqarish tannarxining 5–10 foizgacha kamayishiga xizmat qilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida JSTning AoA (Agreement on Agriculture) bitimi davlat qo'llab-quvvatlash choralari quyidagi ikki toifaga ajratiladi:

1. “Sariq quti” (Amber Box) – ishlab chiqarish hajmi va narxlarga ta'sir etuvchi subsidiyalar (masalan, paxta va g'alla uchun imtiyozli kreditlar). JST ushbu ko'rsatkichlarni YaIMning 5 yoki 10 foizidan oshirmaslikni nazarda tutadi.

2. “Yashil quti” (Green Box) – infratuzilma, ilmiy tadqiqotlar va zararkunandalarga qarshi kurashga



yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlash choralari. Ushbu turdagi qo'llab-quvvatlashga cheklovlar qo'yilmaydi.

Umuman olganda, davlatning fermerlarni qo'llab-quvvatlash shakllari takomillashib, sohani ilmiy va texnologik rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Bundan tashqari, qurilish sohasida asosiy talab davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlash va xorijiy kompaniyalarning teng huquqli ishtiroki uchun sharoit yaratishdan iborat. Davlat qurilish sohasida nafaqat buyurtmachi, balki milliy standartlarni (ShNK va MNK) xalqaro standartlar (ISO, Eurocodes) bilan uyg'unlashtiruvchi subyekt sifatida ham faoliyat yuritadi. Natijada xorijiy investorlarning qurilish bozoriga kirishi osonlashadi va sohada raqobat muhiti yanada rivojlanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi JSTning GATS (General Agreement on Trade in Services) bitimi bilan tartibga solinadi. Uning asosiy talabi bank, sug'urta va telekommunikatsiya sohalarida xorijiy kapital ishtirokiga oid cheklovlarni bosqichma-bosqich kamaytirishdan iborat. Bunda davlat xizmat ko'rsatish sohasidagi operatorlik funksiyalarining bir qismini xususiy sektorga o'tkazib, asosan regulyator va nazorat qiluvchi sifatida faoliyat yuritadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston bank tizimida davlat ulushini 70 foizdan 40 foizgacha kamaytirish strategiyasi ham ushbu yondashuvga mos keladi.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi real sektor uchun nafaqat tashqi savdo tizimidagi o'zgarish, balki chuqur tarkibiy transformatsiya jarayonidir. Uning ta'siri va iqtisodiy oqibatlarini bir necha yo'nalishlarda tizimlashtirish mumkin.

Birinchiidan, JSTga a'zolik tarmoqlarda davlat himoyasidan (proteksionizm) xalqaro raqobat muhitiga o'tishni anglatadi. Xususan, sanoat tarmog'ida yuqori import bojlari bilan qo'llab-quvvatlangan tarmoqlar uchun raqobat muhiti sezilarli darajada kuchayadi. Bu esa texnologik jihatdan ilg'or korxonalarining rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida "Yashil quti" subsidiyalariga ustuvorlik berilishi natijasida davlat mablag'lari infratuzilma, seleksiya va agrotexnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bu esa mahsulot sifatini xalqaro talablarga moslashtirish imkonini beradi. Xizmatlar sohasida moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiya va transport bozorlarining ochilishi xizmatlar sifati oshishi hamda samaradorlikning ortishiga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, JSTga a'zolik "samaradorlik effekti"ni yuzaga keltiradi. Davlat tomonidan real sektorni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi resurslarning (kapital va mehnatning) yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarga samarali yo'naltirilishiga xizmat qiladi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda yalpi ichki mahsulot tarkibining sifat jihatidan yaxshilanishiga hamda iqtisodiyotning texnologik murakkablashuviga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, real sektor tarmoqlarida iqtisodiy subyektlarning institutsional tarkibi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtiroki bosqichma-bosqich qisqarib, xususiy sektorning roli va ulushi ortib bormoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar sohalarida xususiy sektorning ustuvor mavqega ega bo'lishi bozor mexanizmlarining rivojlanganligini hamda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni tasdiqladiki, real sektorni davlat tomonidan tartibga solish tizimi tobora ma'muriy boshqaruv modelidan bozor tamoyillariga asoslangan regulyativ modelga transformatsiyalanmoqda. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni ushbu transformatsiyani yanada jadallashtirib, davlatning iqtisodiy faoliyatdagi bevosita ishtirokini maqbullashtirish, raqobat muhitini rivojlantirish va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish uchun qo'shimcha institutsional sharoitlarni yaratmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari davlatning real sektordagi vazifasi ishlab chiqarish jarayonlarida to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishdan ko'ra, samarali institutsional muhit yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, raqobatni qo'llab-quvvatlash hamda investitsion faollikni rag'batlantirishga qaratilishi lozimligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- real sektor tarmoqlarida davlat ishtirokidagi korxonalarini bosqichma-bosqich optimallashtirish va xususiy sektor ulushini kengaytirish;
- davlat tomonidan berilayotgan selektiv subsidiyalarni qisqartirib, ularni JST talablariga muvofiq infratuzilma, innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish;
- real sektor korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish maqsadida texnologik modernizatsiya va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun institutsional va huquqiy kafolatlarni kuchaytirish hamda investitsion muhitni yanada yaxshilash;
- davlat korxonalarida korporativ boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish va ularning faoliyatini bozor



mezonlari asosida tashkil etish;

– real sektorni tartibga solishda ma'muriy usullardan ko'ra iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlariga ustuvor ahamiyat berish;

– JSTga a'zolik sharoitida texnik tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimlarini xalqaro talablarga to'liq moslashtirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi real sektor korxonalarining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish hamda O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuv jarayonlarini faollashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keynes J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London: Macmillan, 1936.
2. North D. C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
3. Rodrik D. *One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions and Economic Growth*. – Princeton: Princeton University Press, 2007.
4. OECD. *Economic Policy Reforms 2025: Going for Growth*. – Paris: OECD Publishing, 2025.
5. World Trade Organization. *World Trade Report 2024*. – Geneva: WTO Publications, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: statistik to'plam*. – Toshkent, 2025.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100